



INNOVATIVE
WORLD

ISSN: 3030-3079

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

SHARQ AKADEMIK VA KO'P TARMOQLI
TADQIQOTLAR JURNALI

Scientific Journal

2026/4



www.innoworld.net


+998 33 5668868



ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Volume 4, Issue 4
2026

Journal has been listed in different indexings



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

The official website of the journal:
www.innoworld.net

Uzbekistan-2026

"Qaxramonlik-xulq-atvor qadrlanishini ko'rsatuvchi meyor sifatida"

O'zbekiston Respublikasi

Ichki Ishlar Vazirligi Malaka oshirish institut

O'quv yig'in boshlig'I Podpolkovnik

Djumaboyev J.Z**Annatsiya**

Ushbu maqolada Qahramonlik esa insoniy qadriyatlar tizimida maxsus o'rin tutuvchi, ijtimoiy ong va kollektiv xotirada mustahkamlangan aksiologik hodisa sifatida tahlil qilinadi. Hamda xulq-atvor namunalari axloqiy mezonlar asosida baholanadi. Uning tasvirlangan holati namuyon etilgan.

Shuningdek qahramonlik tushunchasi shaxsning ijtimoiy xulq-atvori qadrlanishini belgilovchi oliy axloqiy meyor sifatida tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi globallashuv sharoitida qadriyatlar transformatsiyasi va zamonaviy jamiyatda "ideal qahramon" modeliga bo'lgan ehtiyoj bilan belgilanadi. Hamda qahramonlikning faqatgina ekstremal vaziyatlardagi jasorat emas, balki kundalik ijtimoiy munosabatlarda insoniy fazilatlarning yuksak namunasi sifatidagi funksiyalari tahlil qilingan. Ilmiy tahlilda qahramonlikni shaxsning o'zligini anglash va ijtimoiy mas'uliyatni his etish darajasi bilan bog'laydi. Xulosa sifatida, qahramonlik meyorlarining shakllanishi jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi va yoshlar tarbiyasida etalon (namuna) vazifasini o'tovchi asosiy omil ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek Prezidentimizning ushbu mavzuga doir nutqlari va asarlarlar, hamda ishlab chiqilgan qonun, qoidalarlarda xulosalar keltirib o'tilgan,

Kalit so'zlar: ideal qahramon, qahramonlik, xulq-atvor, etalon, globallashuv, deterministik, ijtimoiy qadriyatlar, ichki potentsiali, instinkt, ekstremal vaziyat.

"Героизм как мерило ценности поведенческих актов."

Аннотация

В данной статье героизм анализируется как аксиологический феномен, занимающий особое место в системе человеческих ценностей и закреплённый в общественном сознании и коллективной памяти. Также образцы поведения оцениваются на основе этических критериев. Раскрываются формы его проявления и способы описания.

Также понятие героизма исследуется как высшая нравственная норма, определяющая ценность социального поведения личности. Актуальность исследования обусловлена трансформацией ценностей в условиях глобализации и потребностью современного общества в модели "идеального героя". Кроме того, анализируются функции героизма не только как мужества в экстремальных ситуациях, но и как высокого образца человеческих добродетелей в повседневных социальных отношениях. В научном анализе героизм связывается с уровнем самосознания личности и чувством социальной ответственности. В качестве заключения обосновано, что формирование норм героизма является ключевым фактором, обеспечивающим духовную стабильность общества и выполняющим роль

эталона в воспитании молодежи. Также приведены выводы, основанные на выступлениях и трудах Президента, а также на принятых законах и нормативных актах, касающихся данной темы.

Ключевые слова: идеальный герой, героизм, поведение, эталон, глобализация, детерминистский, социальные ценности, внутренний потенциал, инстинкт, экстремальная ситуация.

"Heroism as a norm reflecting the valuation of behavior."

Abstract

This article analyzes heroism as an axiological phenomenon that holds a special place in the system of human values and is embedded in social consciousness and collective memory. Furthermore, behavioral patterns are evaluated based on moral criteria. The study presents the manifested states of its representation.

In addition, the concept of heroism is researched as a supreme moral norm that determines the valuation of an individual's social behavior. The relevance of the study is defined by the transformation of values in the context of globalization and the necessity for an 'ideal hero' model in modern society. Furthermore, the functions of heroism are analyzed not only as courage in extreme situations but also as a high exemplar of human virtues in daily social interactions. Scientific analysis links heroism with the level of an individual's self-awareness and their sense of social responsibility. In conclusion, it is substantiated that the formation of heroism norms is a key factor in ensuring the spiritual stability of society and serving as an etalon (model) in the upbringing of youth. Furthermore, conclusions are drawn based on the speeches and works of the President, as well as established laws and regulations concerning this subject.

Keywords: ideal hero, heroism, behavior, benchmark, globalization, deterministic, social values, inner potential, instinct, extreme situation.

Kirish

Qaxramonlik- bu shunchaki jasorat ko'rsatish emas, balki insonning o'z manfaatlari, qo'rquvlari va hatto inson hayotini xavfga qo'yib bo'lsada el-yurt yoki boshqalar, Vatan manfaatlari yo'lida fidokorona harakat qila olish qobiliyatidir. Qaxramonlik har doim ham jang maydonida sodir bo'lmaydi. Haqiqatni aytish, adolatsizlikka qarshi chiqish va qiyin vaziyatda o'z prinsiplariga sodiq qolish ham qaxramonlikning bir shaklidir. Qaxramonlikning asosi — **begarazlikdir**. Inson o'z xatti-harakati uchun mukofot yoki shon-sharaf kutmasdan, qalb amri bilan yordamga shoshilishi uni qaxramon qiladi. O'zbek xalqi tarixida Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi siymolar vatanparvarlik qaxramonligining timsoli bo'lsa, xalq dostonlarida Alpomish yoki Go'ro'g'li kabi obrazlar mardlik va or-nomus ramzi hisoblanadi.

Xullas qaxramonlik bu mas'uliyatni o'z zimmasiga olish. Atrofga befarq bo'lmagan, boshqalarning dardi bilan yashaydigan va xavf-xatardan hayiqmaydigan inson qalbida doimo qaxramonlikka joy topiladi.

Xulq-atvor nima?

Xulq-atvor — bu tirik mavjudotning ichki (biologik, psixologik) va tashqi (ijtimoiy, ekologik) omillar ta'siriga nisbatan ko'rsatadigan deterministik (sabab-oqibatli) reaksiyalari majmuidir. Inson xulq-atvori hayvonlarnikidan farqli o'laroq, ongli maqsadga yo'naltirilganligi va ijtimoiy qadriyatlar bilan tartibga solinishi bilan ajralib turadi. Hamda shaxsning ichki potentsiali va ijtimoiy muhit talablari o'rtasidagi muvozanatni ifodalovchi indikator (ko'rsatkich)dir. U shaxsning ma'naviy yetukligini, intellektual salohiyatini va ijtimoiy mas'uliyatini real harakatlarda aks ettiradi. Aynan "Qahramonlik" kontekstida xulq-atvor — shaxsning ijtimoiy manfaatlarini o'zining biologik instinktlaridan (masalan, qo'rquv yoki o'zini asrash) ustun qo'ya olish qobiliyatining eng oliy ko'rinishidir.

Jamiyatda har bir xulq-atvor namunasi insonning axloqiy mezonlari asosida baholanadi. U shaxsning kundalik hayotidagi xulq-atvor shakllarning yig'indisi hisoblanadi. Chunki shu xulq-atvorga xos ma'naviy axloqiy va estetik madaniyat meyorlarining ifodasi aks etadi. Ya'ni xulq-atvor madaniyati shaxsda shakllangan ijtimoiy muhim sifatlar, uning jamiyatdagi ma'naviyat, axloq va estetik madaniyat me'yorlariga asoslangan kundalik xatti-harakatlar yig'indisidir. Agar ma'naviy-axloqiy me'yorlar kishilar xatti-harakatlarning mazmunini belgilab, ularni muayyan vaziyatlarda qanday harkat qilish lozimligi haqida ogohlantirsa, estetik me'yorlar kishi o'zi xulq-atvorida axloq talablarini qay ko'rinishda amalga oshirilishi, qanday qilib bu me'yorlar uning turmush tarzi bilan tabiiy ravishda uyg'unlashib ketishi, shaxsning kundalik hayotiy qoidalariga aylanib ketishini belgilaydi. Masalan, kishilarga bo'lgan hurmat talabi kundalik hayotidagi xulq-atvorga qo'llansa, u xushmuomilalik, nazokatlik, sergaklik, boshqalar vaqtini behudaga ketkazmaslik kabilarda aks etadi. O'zi zimmasidagi majburiyatlarga sadoqat talabi xulq-atvor madaniyati nuqtai nazaridan berilgan va'dalarni amalga oshirishdagi aniqlik, kelishilgan vazifalarni o'z vaqtida va samarali bajarish, omonatni qaytarish kabilar orqali namoyon bo'ladi. Rostgo'ylik esa o'zining namoyon bo'lish shakliga ko'ra to'g'rilik, sofdillik, adolatparvarlik, haqqa xiyonat qilmaslikdan o'z ifodasini topadi. Kishi xulq-atvori etologiya, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar tomonidan o'rganiladi. Ushbu hodisaning tabiatini aniqlashtirishda birlamchi—"barcha tirik jonzotlarga xos, ularga atrof-muhit bilan o'zaro aloqaga kirishishda zarur bo'lgan, harakat faolligini ishga soluvchi va yo'naltiruvchi hodisa" sifatidagi ta'rifidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi kunda jamiyatda tarbiyali, xushxulq, til va dil birligiga erishgan ichki va tashqi olamli birday go'zal insonlarni ko'plab uchratish mumkin. Ammo kishilar, ayniqsa, yoshlar orasida tinimsiz o'qish, izlanish va jamiyatga naf keltirish kabi buyuk maqsadlarni qo'yish va ularga erishish, ichki dunyosini boyitish, xulq-atvor madaniyatini yuksaltirishga intilishdan ko'ra e'tiborni ko'proq kiyinish, o'ziga oro berish, tashqi qiyofasiga qaratayotganlar ham yo'q emas. Mashhur adib A.Chexov halqi ravishda ta'kidlanganidek: "Insonda hamma narsa go'zal bo'lishi lozim; yuzi ham, kiyim ham qalbi va hatto, fikr ham.. Men go'zal yuzli, chiroyli kiyimli kishilarni juda ko'p ko'raman, bunday go'zallikdan booshing aylanib qoladi, biroq

qalbi va xayollari.." Ey Xudo!Ba'zan chiroylikkina qobiqqa shunchalik qora ko'ngil joylashib oldiki, uni hech bir siyoh bilan o'chirolmaysan"¹.

Shunday qilib, xulq-atvor madaniyatni me'yorlarda, qoidalari, tamoyil va ideallar mustahkamlangan jamiyat axloqiy talabalarini ifodalaydi. Ular shaxsiy tajriba bilan uyg'onlashib, quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Shaxsning tashqi ko'rinish;

Boshqalar oldida o'zini qanday tuta bilishi;

Qaysi yo'lni tanlashi;

O'z hayot tarzi va kishilar bilan muloqotini qay yo'sinda tashkil qilishi va rivojlantirishi;

Bolaga yoshlik chog'laridanoq Vatani, eli, yaqinlariga mehr-muhabbatli va yaxshi munosabatda bo'lishni singdirish, unga shaxsiy namuna bo'lishi har biro ta-onaning birinchi galdagi vazifasi hisoblanadi. Keyingi qadam o'zini-o'zi tarbiyalashdir. Bu- o'z xarakterini shakllantirish, o'zida chinakam insoniya sifatlarni ongli ravishda rivojlantirish yo'lidir. Bungi kunda o'qish, o'rganish va o'z-o'zini tarbiyalash uchun talay vosita va imkoniyatlar mavjud: misol maktablar, maxsus kurslar, o'quv yurtlari, kutubxonalar, teatr-kino, TV va boshqalar. Ulardan nafaqat tashqi qiyofa va estetik didni shakllantirishda, balki ichki dunyoni boyitish, ma'naviyatni yuksaltirish, go'zallikni qalbdan his etish, qabul qilish va o'rinda ishlata bilish yo'lida ham foydalanishi lozim bo'ladi. Buning uchun inson tinimsiz o'qib-o'rganishi, izlanishi zarurdir. Inson madaniyatining bir qanoti estetik did bo'lsa, ikkinchi qanoti uning axloqi, xulqidir. Yusuf Xos Hojib aytganidek: " Kishi chiroyiga ichki dunyosini eshdir, Yuz ko'rki bilan uning fe'l-atvori tengdir". Zero, insonni go'zal qilib ko'rsatadigan uning chiroyli xulqidir.

Xushxulq xunuk kishini ham chiroyli qilib ko'rsatadi. Chiroyli xulq chiroyli kishilardan mavjud bo'lsa, nur ustiga a'lo nurdir. Xulq-atvor qoidalari rioya etish, uni ichki dunyosiga singdirish, xulq-atvor madaniyatining eng yuksak cho'qqilarga ko'tarilish kishidan o'z ustidan har kuni ishlashni talab qiladi. Bu uning kelajakda har jihatdan kamol topishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism

Qaxramonlik faqat harbiy holatlarda emas, balki tinch hayotda ham(ilmda, mehnatda, shaxsiy jasorat) namoyon bo'ladi. Jamiyat ongida bu tushuncha bu tushuncha axloqiy fazilatlarining cho'qqisi, yuksak insoniy mezon sifatida qaraladi. U orqali qadryatlar shaklanadi qahramonlar jamiyat tomonidan qadrlanadigan halollik, fidoylik, mardlik, vatanparvarlik, g'urur kabi xulq-atvorlarni o'zida mujassam etadi. Ularning hayoti va harakati orqali bu xatti-harakatlar ixtiyoriy me'yorga ayalanadi va jamiyat bu xatti-harakatlarni ma'qullaydi, ulug'laydi takrorlanishini istaydi.

Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonida 26.03.2021 yilda "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PQ-5040-sonli** Qaror ishlab chiqildi. Bu qarori nafaqat davlat

¹ "В человеке должно быть всё прекрасно: и лицо, и одежда, и душа, и мысли..." II- b / 13-jild / 79-bet /1897-yil/ Rosiyya Moskva

hujjati, balki milliy g'oya va ijtimoiy xulq-atvor strategiyasini belgilab beruvchi konseptual manba hisoblanadi. Ushbu qarordan Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni "umummilliy harakatga" aylantirish. Bu qahramonlikning ommaviy xarakterini tushuntirishda yordam beradi.² Hamda Qahramonlikni — milliy yuksalishning drayveri va ma'naviy mezon sifatida ko'rsatish uchun asos bo'ladi.³ Shuningdek Milliy qahramonlar va namunali xulq-atvorni san'at va adabiyot orqali qadrlash tizimi haqida ma'lumot beradi.⁴

Shuni ta'kidlash kerakki, qaxramonlar tug'ilmaydi, balki ularga mehr berib ularni yaratiladi. Ushbu rollga muvaffaqiyatli qo'shilish uchun insonning ijtimoiylik uchun yordam beradigan individual psixologik fazilatlarga ega bo'lish kerak. Barcha qaxramonlar o'xshash fazilatlar ro'yxatiga ega, ammo turli xil harakatlarni nazarda tutadi. Qaxramonlarning bir necha turlari mavjud⁵. Misol tariqasida:

- Jang himoyachisi va bosqinchi, shuningdek qahramonlarning eng qadimgi qiyofasi hisoblanadi.
- Ustoz butun umrini ilmiy va ijodiy sohalarda ishlashga bag'ishlaydi.
- Rekord egasi ustaga o'xshaydi, ammo bu holda odam miqdoriy natijalarga erishishga intiladi.
- Kashshof- bu jamiyat uchun muhim narsani o'ylab topishga muvaffaq bo'lgan qaxramon.
- Haqiqat izlovchi har doim adolat uchun kurashadi.
- Qo'zg'olonchi qaxramon-jangchi va haqiqat izlovchi xislatlarga ega bo'lgan shaxs.
- Sarguzashtchan har doim tavakkal qilishga va jasorat ko'rsatishga tayyor.
- Boy qaxramonlar- bu qashoqlikda o'sgan, lekin mustaqil ravishda boylar farovonlikka erishgan inson

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5040-sonli qarorida⁶ belgilanganidek, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning tub mohiyati komil insonni tarbiyalashga qaratilgan. Bu jarayonda qahramonlik xulq-atvori shunchaki favqulodda jasorat emas, balki kundalik ijtimoiy mas'uliyatning yuqori darajasi sifatida talqin etilmoqda. VMQ-140-sonli qaror⁷ bilan tasdiqlangan konsepsiya esa, qahramonlikni yoshlar ongida me'yoriy qadriyat sifatida shakllantirishning

² "PQ-5040-son (26.03.2021): "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror/. I bandi/

³ "PQ-5040-son (26.03.2021): "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror." II-bandi/

⁴ "PQ-5040-son (26.03.2021): "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror." IX-bandi/

⁵ Filip Zimbardoning "Heroic Imagination Project" nomli ilmiy tadqiqoti /208-yil/ AQShning Kaliforniya shtatida, San-Fransisko shahri/ Stanford University

⁶ PQ-5040-son (26.03.2021): "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror." II-bandi/ 6-bet/

⁷ 2018-yil 23-fevraldagi 140-sonli qarori/ "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi" / IV-bob

metodologik asoslarini yaratib berdi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda fidoyilik va vatanparvarlikning ijtimoiy nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Buyuk donishmand faylasuf Al-Farobiy " Fozil shahar kishilarning qarashlari" risolasida yozishicha, fozil rais **dastavval** to'rt muchasi sog' bo'lsin, har ishningki iligini tutsa, malolsiz ado eta volsin;

Ikkinchidan, tabiatan nozik, farosatli, ziyrak ekanligi tufayli suhbatdosh(ra'iyat)ning so'zu fikrni tez ilg'ab oladigan bo'lsin;

Uchinchidan, ko'rgan-eshitgan narsalarni hamisha xotira ko'zgusida saqlay olsin;

To'rtinchidan, idroki pok, zehni o'tkir, zukko bo'lsin;

Beshinchidan, o'z fikrini o'zgaga ravshan tushuntira oolsin, lafzi tiniq va ravon bo'lsin;

Oltinchidan, bilimu ma'rifatga mehrqo'ysin, toliqish nima bilmasin, o'rganish zaxmatlaridan zinhor qochmasin;

Yettinchidan, taom, may, ayollar bobida sabr-qanotli bo'lsin, qimordan qochsun, uning rohat-farog'atidan o'rgansin;

Sakkizinchidan, haqiqatni ardoqlasin, uning tarafdorlarini olqishlasin, yolg'onning betiga qaramasin;

To'qqizinchidan, qalbi mag'rur bo'lsin, o'z obro'yining qadriga yetsin, nomus-oriyatli ekanligini unutmasin, bilsinkim, uning qalbi tabiatan razil ishlardan yartilgandur.

O'ninchidan, dirham, dinor singari turmushning turfa afzaliklaridan nafratlansin, mol-dunyo ketidan quvimasin.

Xulosa

Qahramonlik – jamiyatdagi mavjud xulq-atvor normalarining eng yuqori nuqtasi (ideal darajasi) bo'lib xizmat qiladi. U shaxsning o'z manfaatidan ko'ra umummanfaatlarni ustun qo'yish qobiliyatini o'Ichaydigan ma'naviy mezon hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida qahramonlik tushunchasi harbiy jasorat doirasidan chiqib, "intellektual fidoyilik" va "fuqarolik mas'uliyati" kabi zamonaviy shakllarga ega bo'lmoqda. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidan tortib, zamonaviy adabiyot namunalari orqali qahramon obrazi o'quvchi uchun "ideal xulq-atvor" modeli bo'lib xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, bugungi kun qahramonligi – bu faqat jismoniy jasorat emas, balki 'milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari' g'oyasini amalga oshirishda ko'rsatilayotgan intellektual va ma'naviy fidoyilikdir. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, qahramonlik xulq-atvori jamiyatda 'ijtimoiy immunitet'ni shakllantiruvchi asosiy mezon hisoblanadi. Davlatimiz rahbarining 'ma'rifatli jamiyat' qurish haqidagi g'oyasi qahramonlikni bilim, innovatsiya va mehnatsevarlik kabi zamonaviy me'yorlar bilan bog'laydi. Bu esa qahramonlikning xulq-atvor normasi sifatida qadrlanishi jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik faktor ekanligini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. В человеке должно быть всё прекрасно: и лицо, и одежда, и душа, и мысли..." II- b / 13-jild / 79-bet /1897-yil/ Rossiya Moskva
2. "PQ-5040-son (26.03.2021): "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror/. I bandi/
3. PQ-5040-son (26.03.2021): "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror." II-bandi/.
4. "PQ-5040-son (26.03.2021): "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror." IX-bandi/
5. Filip Zimbardoning "Heroic Imagination Project" nomli ilmiy tadqiqoti /208-yil/ AQShning Kaliforniya shtatida, San-Fransisko shahri/ Stanford University.
6. PQ-5040-son (26.03.2021): "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror." II-bandi/ 6-bet/
7. 2018-yil 23-fevraldagi 140-sonli qarori/ "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi" / IV-bob.

